



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGANISHNING UMUMIY MANZARASI

Muallif: To'xtasin Rajabov Ibodovich¹

Affiliatsiya: Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasи mudiri professor, p.f.d. (DSc)¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14409167>

ANNOTATSIYA

Maqlada bolalar folklor qo'shiqlari va ularning umum ta'lrim maktabi musiqa madaniyati darslarida o'rganishning umumi manzarasi (ko'rinishi) tahlili asosida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xalq qo'shiqlari, bolalar, musiqa darslari, ta'lim, tarbiya, ijodkorlar, o'quvchi yoshlar, musiqiy sezgi, musiqiy obraz, Kuy, qo'shiq, ijro, xalq ijodi. so'z matni tuzilishi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabiki yillardanoq, birinchi navbatda milliy tiklanish, o'zlikni anglash va ruhiy poklanish, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni saqlash, tiklash va boyitish, ta'lim tizimini yangilash, yanada rivojlantirish va jahon talablari darjasiga yetkazish borasida jiddiy harakatlar boshlandi. Hayotning barcha jabhalarida, jumladan, madaniyat, san'at va musiqa sohsida ham tub o'zgarishlar ro'y bera boshladi. 2019 yil 4 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-sun Farmonlari, 2018 yil 1 noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi PQ-3990-sun qarori, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sunli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi "2010-2020 yillarda Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ №222-sun qarorlar buning yaqqol dalili hisoblanadi.

Musiqa ta'lmini yanada rivojlantirish, o'quv rejalar, Davlat ta'lim standartlari, namunaviy o'quv dasturlari darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yanada takomillashtirish hamda milliy musiqamizga asoslangan yangi namunalarini yaratish borasida anchagina ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Bolalar xalq qo'shiqlari bolalar musiqa ijodining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, ularning musiqiy tarbiyasida yetakchi vositalardan biri bo'lgan. Bolalar musiqa folklori musiqiy tarbiya vositasi sifatida musiqiy pedagogikaning xalq musiqa pedagogikasi va musiqiy etnopedagogika sohasiga taalluqlidir. Bolalar xalq qo'shig'i musiqa ijodining turlaridan biri sifatida musiqiy etnografiya, musiqiy folklorshunoslik kabi fanlar doirasida o'rganiladi. Alla qo'shig'i kattalar tomonidan yaratilib, bolalarning orom olib uxlashlariga yordam beradigan tuyg'uli musiqiy ta'sir vositasi bo'lsa, bolalar xalq qo'shig'i – bu



bolalarning o'ziga xos turli o'y - xayollari, his – tuyg'ulari, ta'surotlari, o'yinlari va munosabatlarini o'zida aks ettirgan, o'zlari ijod etgan xalq qo'shiqlari hisoblanadi. Bolalar xalq qo'shiqlarining shakl va janrlari ko'lami hayotning o'zidek katta va xilmaxildir.

Bolalar xalq qo'shiqlarining mavzu va janrlariga o'yin-qo'shiqlar, hazil -mutoiba qo'shiqlari, sanamalar, tez aytishlar, tegishmalar har xil tovushlarga taqlid (immitatsiya) qilish, topishmoqlar, maishiy qo'shiqlar, diniy, bayram, mehnat, yil fasllariga, tabiat, hayvonlar, qushlarga bag'ishlangan va boshqa qo'shiqlar kiradi. Tabiiyki, bolalar folklor qo'shiqlarining paydo bo'lishida ma'lum darajada kattalarning ham hissasi bo'lishi mumkin. Chunki bolalar hayotda doimo kattalar bilan birga bo'ladilar, ulardan o'rganadilar ularga taqlid qiladilar, kattalar qo'shiqlarini eshitadilar va ularning ta'sirini sezadilar. Ammo bolalar bu ijodiy jarayonga kirishib ketib, qo'shiqlarni o'zlari zo'r zavq-shavq bilan obrazli ijro etadilar. Bolalar folklor qo'shiqlari janrlarining xilmaxilligi ulardan ijod, ijro, musiqa ta'limi va tarbiyasi usuliyoti kabi musiqa pedagogikasining barcha turlari va tarmoqlarida foydalanishga imkon beradi.

Maktab musiqa ta'limi va tarbiyasi DTSlari, namunaviy o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarda oddiydan murakkabga (izchillik) tamoyili asosida tasniflangan "Oshxo'rakam kaptar", "Zuv-zuv borag'ay", "Oq terakmi, ko'k terak", "Chitti gul" "Yomg'ir yog'aloq", "Laylak kedi", "Qichqir xo'rozim", "Bahor keldi", "Boychechak" kabi birqancha bolalar folklor qo'shiqlari kiritilgan.

Yuqorida keltirilgan bolalar folklor qo'shiqlari garchi umumiy kupletli shakl doirasida birlashtirilgan bo'lsada, ularning mavzu va janr turlari, lad va tonal rejasi xilmaxildir. Ularning ohang bilan kuylash xususiyatlari ko'ra oddiy uch, to'rt va olti taktli turlaridan boshlab, yaxshi rivojlangan 8, 16 va undan ham ko'proq taktli ko'rinishlari bor. Masalan "Yomg'ir yog'aloq" qo'shig'i 4 takt ohang bilan aytilsa, "Laylak keldi" qo'shig'i 8 taktli ohang bilan aytiladi. Ularning ayrimlarini birinchi, ba'zan ikkinchi jumlalarida ("Hayu", "Hoy", "Hey", "Ey") kabi o'ziga xos xitob o'zgarishlar kiritilib, jumlalar qo'shaloqlanadi. Ayrim qo'shiq namunalarida esa kuy ohangi unchalik rivojlanmagan bo'lib, operadagi rechitativ (oddiy so'zlarni ohang bilan kuylash)ga o'xshaydi. Bunday qo'shiqlarning so'z matnida ham so'zlarning o'zaro mantiqli bog'lanishi sezilmaydi. Masalan: "Laylak keldi" qo'shig'i "Laylak keldi yoz bo'ldi, qanoti qog'oz bo'ldi" so'zlari bilan boshlanadi. Birinchi jumla tushinarli, ammo ikkinchi jumladagi "Qanoti qog'oz bo'ldi" so'zlarini tushintirib berish qiyin.

Bolalar sevib ijro etadigan "Boychechak" folklor qo'shig'i nisbatan ko'proq rivojlangan bolalar xalq qo'shiqlaridan hisoblanadi. Unda yorqin namoyon bo'lgan 8+6+8 taktli davrlardan tashkil topgan uch qismli shaklni ko'rishimiz mumkin. Qo'shiqning ijrosi bolalarga olam-olam quvonch bag'ishlaydi. Uning dramatik mazmuni tabiat, kundalik hayot va ajoyib boychechak guli manzaralarining yorqin obrazlari bilan boyitilgan.

Biz Buxoro shahri va tumanining ayrim maktablarida bo'lib, asosan boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslarini kuzatdik. Ayrim tajribali mohir musiqa o'qituvchilari dars jarayonida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganish ustida ish olib borganlarining guvohi bo'ldik. Ayniqsa Buxoro tumaninig 6 -maktabdagi musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning "Chamanda gul", "Bahor keldi" qo'shiqlarining qizlar raqsi bilan birgalikda ijro etilishi bizda zo'r ta'surot qoldirdi

Xulosa qilib aytganda umumta'lim maktabi musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari musiqa to'garaklarida O'zbek xalq bolalar folklor qo'shiqlaridan foydalanish, mazkur qo'shiqlarning yorqin obrazlari orqali bolalarda ona yurtga, uning tabiatiga, an'analariga muhabbat tuyg'usini shakllantirish va ularni musiqa ijrochiligi hamda ijodiyotiga oshno bo'lishlariga juda katta yordam beradi.

Biz o'quvchilarga o'zbek musiqa folklorini ijrosi, uning tarbiyaviy ahamiyati, xalq qo'shiqlarining qadr-qiymati, hamda mahaliy uslublarni sifatli o'rgatmoqchi bo'lsak eng avvalo bu janrga yaqin bo'lgan O'zbek xalq musiqa ijodi, O'zbek musiqa folklori, Etnomusiqa shunoslik va Bolalar folklori kabi fanlarni Musiqa ta'limi yo'nalishida o'tiladigan fanlarning qatoriga kiritishimiz va bu fanlarni bo'lajak musiqa o'qituvchilarimizga mukammal o'rgatishimiz zarur.

Oshi sofi Buxoro

Naimiy so'zi
Shodmon Sulaymon tarjimasi
To'xtasin Rajabov musiqasi

J=105

A-na osh, a-na osh, a-na osh, so-fi osh.
Naqarot
A-na osh, a-na osh, so-fi osh, so-ü osh. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis - li bir
gav - har e - rur, Ham a - ziz meh - mon u - chun ming tuh - fa - dan af - zal e - rur. Mis qo - zon
uz - ra ni - goh sol xud - di op - poq mar va - rid, Tan - ga quv - vat, dil - ga mal - ham, po - ki - za
Naqarot
dil - bar e - rur. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis - li bir gav - har e - rur, Ham a - ziz meh - mon u - chun
ming tuh - fa - dan af - zal e - rur. Osh - paz us - to Sa - lim - ga yo - g'i - lur ol - qish, du - o, Meh - mon
qad - ri - ni bil - gay, ko'ng - li pok, zar - gar e - rur. Go' sh - tu yog' bir - la gu - ruch - ni tan - la - gay a' - lo - si - dan,
Naqarot
Mur - chu garn - do - ri, ma - yiz sol - gay yana za - far e - rur. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis - li bir
gav - har e - rur, Ham a - ziz meh - mon u - chun ming tuh - fa - dan af - zal e - rur. He - lu - dol - chin - lar qo' shib,
Naqarot
qand - choy tu - tar Mir - zo Hu - sen, Jon - ga ro - hat, dard - ga dar - mon, mis - li hal - vol - tar e - rur. O-shi so -
fi - yi Bu - xo - ro mis - li bir gav - har e - rur, Ham a - ziz meh - mon u - chun ming tuh - fa - dan af - zal e - rur.
A-na osh, a-na osh, a-na osh, so - fi osh. A-na osh, a-na osh, so - fi osh, so - fi osh.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Sh.M.Mirziyoevning ma'rzasidan O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasining 2017 yil 4 avgustda 32 (4431)-sonida chop etilgan.

Safarov O. O'zbek bolalar folklori.T:O'qituvchi 1985yil.

D.Rajabov va T.Rajabov "Xalq qo'shig'i va musiqa ijrochiligi" Toshkent "Navro'z" nashriyoti 2018 yil.

Tukhtasin Ibodovich Rajabov Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class <https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277> ECB European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur.Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397

Tukhtasin Ibodovich Rajabov VOZMOJNOSTI SOVERSHENST- VOVANIYA PROTSESSA OBUCHENIYA UZBEKISKOMU MUZЫIKALNOMU FOLKLORU Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya (2023 god №7) ISSN 2181-1717(E) <http://interscience.uz> mejdunarodnyu nauchno - metodicheskiy jurnal

Tukhtasin Ibodovich Rajabov Distinctive Features of Folk Songs That Serve in The Spiritual and Moral Formation of Pupils International Journal of Culture and Modernity <https://ijcm.academicjournal.io> ISSN 2697-2131,Volume 29/ Jun-2023.

